

## XALQARO INVESTITSIYA ARBITRAJLARIDA EKSPROPRIATSIYA BO'YICHA TARTIBGA SOLUVCHI DA'VOLAR

*Adizova Nargiza Parda qizi,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
3-bosqich talabasi.  
e-mail: [adizovanargiza9@gmail.com](mailto:adizovanargiza9@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqola xalqaro investitsiya arbitrajlarida ekspropriatsiya masalasi bo'yicha ko'rilgan hamda hal etilgan da'volar hamda ushbu masalani tartibga soluvchi xalqaro va milliy qonunchilik normalariga bag'ishlangan. Davlatlarning tashqi munosabatlarida investitsiya kiritish va qabul qilish to'g'risida shartnomalar tuzish umuman investitsiya munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Investitsiya munosabatlarida, xususan investitsiyalarni va investorlarning huquqlarini himoya qilishda ekspropriatsiya masalasining huquqiy tartibga solinganligi muhim ahamiyatga ega. Ekspropriatsiya xalqaro shartnomalar bilan, davlatlar o'rtasidagi ikkitomonlama shartnomalar bilan bundan tashqari milliy qonunchilik bilan tartibga solinadi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, xalqaro arbitraj, ekspropriatsiya, kompensatsiya, investitsiya kafolatlari, BIT, ICSID.

## PROCEDURAL CLAIMS FOR EXPROPRIATION IN INTERNATIONAL INVESTMENT ARBITRATIONS

**Abstract:** The article is devoted to the international and national legal norms governing the issue of expropriation, which were considered and resolved in international investment arbitrations. In the external relations of the states, conclusion of agreements on investment and acceptance plays an important role in general investment relations. The legal regulation of the issue of expropriation is important in investment relations, especially in the protection of investments and investors' rights. Expropriation is regulated by international agreements, bilateral agreements between states, and national legislation.

**Key words:** investment, international arbitration, expropriation, compensation, investment guarantees, BIT, ICSID.

## ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ИСКИ ОБ ЭКСПРОПРИАЦИИ В МЕЖДУНАРОДНОМ ИНВЕСТИЦИОННОМ АРБИТРАЖЕ

**Аннотация:** Статья посвящена международным и национальным правовым нормам, регулирующим вопрос экспроприации, которые рассматривались и решались в международных инвестиционных арбитражах. Во внешних отношениях государств заключение договоров об инвестировании и акцепте играет важную роль в общих инвестиционных отношениях. Правовое регулирование вопроса экспроприации имеет важное значение в инвестиционных отношениях, особенно в сфере защиты инвестиций и прав инвесторов. Экспроприация регулируется международными соглашениями,

двусторонними соглашениями между государствами и национальным законодательством.

**Ключевые слова:** инвестиции, международный арбитраж, экспроприация, компенсация, инвестиционные гарантии, BIT, ICSID.

**Kirish.** Investitsiya sohasi bugungi kunda rivojlanib borayotgan huquq sohasi hisoblanadi. Sababi shundaki, investitsiyalar nafaqat mamlakat hududidagi tadbirkorlik faoliyatiga, ijtimoiy sohaga yoki boshqa qonun bilan taqiqlanmagan faoliyat turlariga kiritilmoqda, balki chet el investitsiyalarining kirib kelishi ham sezilarli darajada ko'paygan. Davlatlar chet eldan investitsiya kirib kelishidan manfaatdor bo'lganligi uchun ham investorlarga qulay huquqiy sharoit yaratib berishga, ularning huquqlarini kafolatlashga harakat qilishadi. Investitsiyaga qonunchiligimizda quyidagicha ta'rif beriladi: "investitsiya – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellectual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar hisoblanadi".<sup>1</sup> Xalqaro investitsiya huquqi davlatlararo investitsiyaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Har bir huquq sohasida bo'lganidek, xalqaro investitsiya huquqida ham nizolarni tartibga soladigan, ma'lum bir "richag" vazifasini bajaruvchi tashkilotlar mavjud bo'lib, bular xalqaro investitsiya arbitrajleri hisoblanadi. Arbitraj sudlari davlat sud tizimiga mansub bo'lmagan, nizolashilayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan ular o'rtasida kelib chiqqan xo'jalik hamda fuqarolik nizolarini hal etish vakolati berilgan va o'zaro kelishuv asosida saylangan yoki tayinlangan xolis organ hisoblanadi. Investitsiya nizolari bo'yicha taraflar o'zlarining shartnomalarida nizo kelib chiqqanda qaysi sudda ko'rilishi masalasini kelishib olishadi. Xalqaro investitsiya arbitrajleri orasida 1965-yil "Davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasidagi investitsiyaga doir nizolarni hal etish tartibi to'g'risida"gi Vashington konvensiyasi asosida tashkil etilgan ICSID (International Centre for Settlement of Investmen Disputes) tashkiloti muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotning yurisdiksiyasi quyidagicha aniqlanadi: birinchidan, taraflar hisoblangan davlatlar ushbu konvensiyaga a'zo bo'lgan hamda investor va davlat o'rtasidagi investitsiya shartnomasida yoki ikkitomonlama investitsiya bitimi – BIT (Bilateral Investment Treaty)da nizo kelib chiqqanda ICSID da ko'rilishi belgilangan bo'lsa, ikkinchidan, taraflar ushbu investitsiya nizosini ICSID da ko'rishga kelishsalar. Ushbu konvensiya O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 25-avgustdan kuchga kirgan.

**Muhokama va tahlillar.** Davlat va investorlar o'rtasida turli xil nizolar kelib chiqishi mumkin. Bulardan biri ekspropriatsiya bo'yicha nizolardir. Ekspropriatsiya – davlat hokimiyati tomonidan majburiy ravishda (haqini to'lab yoki to'lamasdan) mulkdan mahrum qilishdir. Ekspropriatsiyaning turlariga rekvizitsiya, natsionalizatsiya va musodara kiradi. Ba'zi olimlarimiz, uni majburiy yoki nomajburiylikiga ko'ra konfiksatsiya va rekvizitsiyaga ajratishadi.<sup>2</sup> Bizning fuqarolik qonunchiligimizda rekvizitsiya, natsionalizatsiya va musodara tushunchalari belgilab

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>

<sup>2</sup> O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A.Muhitdinova va boshq.; mas'ul muharrir H.Toychiyev. – T.: Adolat, 2009. 704 b.

qo'yilgan. Rekvizitsiya bu – tabiiy ofatlar, avariyaalar, epidimiya va epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tUSDagi boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq, mulkdordan unga mol-mulk qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartlar asosida olib qo'yilishidir. Natsionalizatsiya — fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonunga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdan iborat. Qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamasdan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin (musodara).<sup>3</sup> Ekspropriatsiya xususiy mulk egasining huquqlarini cheklashi mumkin lekin jamiyat manfaatlari uchungina uni qo'llash qonuniy va adolatli hisoblanadi. Ekspropriatsiya masalasi ko'plab rivojlangan davlatlar qonunchiligida ham mavjud. O'zbekiston qonunchiligida o'tgan 10 yillik davrda aynan ushbu masala bo'yicha kamchiliklar ko'p edi, ya'ni jamiyat manfaatlari aynan nimalar ekanligi aniq belgilab qo'yilmagan edi, buning natijasida hokimiyat organlari jamiyat manfaati sifatida talqin qilib boshqa manfaatlarda ham mol-mulkn olib qo'yish to'g'risida qaror chiqara olardi. Bu ko'plab nizolarni keltirib chiqarar edi. Lekin bugungi kunga kelib qonunchilik takomillashtirilishi natijasida bunday vaziyatlarga chek qo'yildi. Jamiyat manfaatlari nimalardan iborat ekanligi belgilandi. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi natijasida investitsiya sohasida ekspropriatsiyaga qat'iy talablar belgilandi. Qonunga ko'ra, investorlarning investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilinmasligi bundan tabiiy ofatlar, avariyaalar, epidemiyalar, epizootiylar va favqulodda xususiyatga ega bo'lgan boshqa hollar mustasno ekanligi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, ushbu qonunda investorlarning huquqlari belgilangan bo'lib unga ko'ra investorlar o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilinganda munosib kompensatsiya olishga haqli. Kompensatsiya miqdori mol-mulkn qiyamatidan kelib chiqib belgilandi. Bu qoida shuni ko'rsatadiki, investorlar mol-mulki ekspropriatsiya qilinganda ular hech narsasiz qolmasligi kerak, mol-mulkn qiyamati albatta kompensatsiya qilinishi kerak. Ekspropriatsiya qilish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Ekspropriatsiya investorning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'yishi yoki unga ko'p miqdorda zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ham uni qo'llash uchun ma'lum bir talablarni belgilab qo'yish lozim bo'ladi. Xususan avvalo ekspropriatsiya qonuniy bo'lishi lozim. Hech bir davlat organi o'zboshimchalik bilan uni investorlarga qo'llashi mumkin emas. Ekspropriatsiya to'g'risidagi qaror qonuniy asoslantirilgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ekspropriatsiya yetarli miqdorda bo'lishi kerak, ya'ni jamiyat ehtiyojlariga mutanosib keladigan mol-mulkgina olib qo'yilishi kerak. Misol keltiradigan bo'lsak, 2020-yilda COVID-2019 virusi tarqalishi natijasida mamlakatimizda epidemiya holati vujudga keldi. Bunday vaziyatda davlatda kasalxonalar uchun binolarga zarurat tug'ildi. Shunda davlat hokimiyati investorning 2 ta binosini ekspropriatsiya qilib, ulardan bittasidan foydalanib, bittasini bo'sh qoldirishi mumkin emas. Bu vaziyatda ehtiyoj faqat bitta bino uchunmi, faqat bitta bino ekspropriatsiya qilinishi kerak. Yetarlilik talabi shuni

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-111189#-154122>

anglatadi. Uchinchidan, ekspropriatsiya oxirgi zarurat bo'lishi lozim, ya'ni davlatning jamiyat manfaatlarini ta'minlash uchun boshqa choralar bo'la turib, investorning mol-mulkini ekspropriatsiya qilishi investor va davlat o'rtasida nizo kelib chiqishiga sabab bo'ladi. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunimizda ekspropriatsiya qilish uchun quyidagi talablar belgilangan:

- 1) Investorlar aktivlarining minimal hajmi bilan cheklanishi;
- 2) Kamsitilmaydigan asosda amalga oshirilishi;
- 3) Yetkazilgan zararga monand kompensatsiya to'lash bilan birga amalga oshirilishi.

Davlat mazkur kompensatsiya to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilishining kafili sifatida ish yuritadi. Investorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ushbu qoidalar kiritilgan. Lekin ekspropriatsiya jarayonida turli nizolar kelib chiqishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligi investorga sud va arbitraj tartibida, xususan, quyidagilar yuzasidan nizolashishga imkoniyat beradi:

rekvizitsiyani (ekspropriatsiyani) amalga oshirish uchun foydalaniladigan maqsadning qonuniyligi;

rekvizitsiyaning (ekspropriatsiyaning) miqdori;

rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilinayotgan investitsiyalarni va boshqa aktivlarni baholash;

to'lanishi lozim bo'lgan kompensatsiya to'lovlarning muvofiqligi;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rekvizitsiyani (ekspropriatsiyani) amalga oshirish chog'ida rioya etgan tartib-taomil. Investorga yuqoridagi holatlar bo'yicha zarar yetkazilgan deb hisoblasa, investitsiya faoliyati amalga oshirilayotgan davlat milliy sudiga yoki arbitrajga yoki xalqaro arbitrajga da'vo arizasi bilan chiqishi mumkin. Bu investorning tabiiy huquqi deb hisoblasak ham bo'ladi, negaki nizo kelib chiqqanda sud orqali o'z huquqlarini himoya qilish huquqidan mahrum bo'lish investorning huquqlarini cheklash bo'lib qoladi.

Ekspropriatsiya bo'yicha nizo kelib chiqqanda qaysi sudga yoki arbitrajga murojaat qilinishi investitsiya shartnomasida yoki davlatlar o'rtasida tuziladigan ikkitomonlama bitimlarda belgilangan bo'ladi. Nizo vujudga kelganda dastlab muzokara usulida iloji boricha do'stona hal etilishiga harakat qilinadi. Bugungi kunda O'zbekiston 50 dan ortiq davlatlar bilan BIT larni imzolagan. Ulardan 40dan ortig'i hozir ham amal qiladi. BIT larning xususiyati shundaki, ahdlashuvchi davlatlarning investorlari ikkinchi ahdlashuvchi davlatga investitsiya kiritganlarida davlat tomonidan ularga qulay sharoitlar yaratib beriladi. Bundan tashqari ushbu bitimlarda investorlarga nisbatan milliy rejimni qo'llash, ular bilan munosabatlarda qaysi davlat qonunchiligini qo'llash masalasi, nizolarni hal qilish masalasi hal qilinadi. 2011-yil 19-aprelda O'zbekiston Respublikasi va Xitoy xalq Respublikasi hukumatlari o'rtasida Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida bitim imzolangan bo'lib ushbu bitim Xitoy va O'zbekiston Respublikalarining investorlariga nisbatan tadbiq etiladi. Ushbu bitimda ekspropriatsiya bo'yicha nizolar ham tartibga solingan. Xususan, ekspropriatsiyaning bilvosita shakliga ham to'xtalib ketilgan. Bilvosita ekspropriatsiya iqtisodiyot sohasida qo'llaniladigan investitsiyaning mulkiy qiymatini tushirishga qaratilgan choralar yig'indisidir. Masalan investitsion ishlab chiqarish obyektlariga kommunal xizmat ko'rsatishni yomonlashtirish yoki boshqa choralar.

Yuqoridagi bitim bo'yicha ekspropriatsiya nizolari imkon boricha do'stona muzokaralar yo'li bilan hal etilishi kerakligi belgilangan. Agar bitimda ko'rsatilgan majburiyatlarni bir Ahdlashuvchi Tomonning investori boshqa Ahdlashuvchi Tomon tarafidan buzilgan deb ayblasa, nizo har qanday tomon tarafidan bildirishnoma yuborilgan sanadan boshlab olti oy mobaynida muzokara yo'li bilan hal qilinmasa, ushbu majburiyatlarni buzish oqibatida zarar yoki ziyon ko'rgan investor, o'z ixtiyoriga ko'ra, quyidagi da'voni berishi mumkin:

a) nizo tomoni hisoblangan Ahdlashuvchi Tomon davlatining vakolatli sudiga;

b) 1965 yil 18 martda Vashington shahrida imzolangan Davlatlar bilan chet el shaxslari o'rtasida investitsiyaga oid nizolarni hal qilish bo'yicha Konvensiyada nazarda tutilgan Investitsiyaga oid nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazga (ICSID), yoki;

v) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasining hakamlik qoidalariga muvofiq tuzilishi lozim bo'lgan «ad hos» hakamlik tribunaliga;

g) nizo tomonlari o'rtasida kelishilgan har qanday hakamlik instantsiyasiga yoki ad hos hakamlik sudiga.

Boshqa Ahdlashuvchi Tomon tegishli investordan nizoni xalqaro hakamlik sudiga taqdim etishidan oldin ushbu Ahdlashuvchi Tomonning qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ichki ma'muriy protseduralarni tugatganligini talab qilish huquqiga ega.

3. Agar investor manfaatdor Ahdlashuvchi Tomonning vakolatli sudiga yoki xalqaro hakamlik sudiga nizoni taqdim etgan bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan to'rt tartibdan biri tanlanganligi yakuniy deb hisoblanadi.

4. Agar investor nizo to'g'risida birinchi marta bilgan sanadan yoki nizoni keltirib chiqaruvchi voqealar haqida birinchi marta bilishi lozim bo'lgan vaqtdan uch yildan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa, nizoni hakamlik sudiga taqdim etish mumkin emas. Bunda da'vo muddati o'tgan hisoblanadi. 5. Agar mazkur Bitim qoidalari hakamlik qoidalariga zid bo'lsa, mazkur Bitim qoidalari ustun hisoblanadi.

6. Sud nizo bo'yicha tomonlar o'rtasida kelishilgan huquq normalariga asosan qaror qabul qiladi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda sud Ahdlashuvchi Tomonning huquqini (uning kollizion normalar to'g'risidagi hujjatlarini ham inobatga olgan holda) va qo'llanilishi mumkin bo'lgan xalqaro huquq normalarini, xususan ushbu Bitimni ham qo'llaydi. Ushbu o'rinda xalqaro investitsiya huquqining prinsiplari ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, ekspropriatsiya qilingan investitsiyaga munosib kompensatsiya to'lash prinsipi. Agar nizolashayotgan tomonlar boshqacha kelishgan bo'lmasalar, Ahdlashuvchi Tomon mazkur Bitim doirasida o'z majburiyatlarini buzgan deb sud qarori bilan tasdiqlasa, sud faqat alohida yoki inobatga olib quyidagi qarorni qabul qilishi mumkin:

(a) pul kompensatsiyasi yoki har qanday qo'llanib bo'ladigan foiz;

(b) mulkni restitutsiya qilish, bu holatda qabul qilingan qaror pul kompensatsiyasiga va restitutsiya o'rniga tegishli foiz olishga qaratilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, investitsiyalar ekspropriatsiya va musodara qilinmasligi kerak. Bu har bir davlat qonunchiligida, bundan tashqari davlatlar o'rtasida tuzilgan ikkitomonlama va ko'ptomonlama

shartnomalarda ham belgilab qo'yilgan. Lekin har bir davlatda davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilish vazifasi birinchi o'rinda turganligi bois, faqatgina xalq – jamiyat manfaatlari yo'lida xususiy mulk ekspropriatsiya qilinishi mumkin. Bunday tartib nafaqat O'zbekistonda balki dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham mavjud va normal holat hisoblanadi. Lekin ularning qonunchiligi biznikidan farq qiladi, ya'ni xususiy mulkning rekvizitsiya yoki natsionalizatsiya qilish uchun mulkdorning roziligi talab etiladi. Dastlab mulkdor bilan kompensatsiya masalasini kelishib olish lozim. Shuning uchun ham ba'zi rivojlangan davlatlar zamonaviy binolar orasida kichik uylarning saqlanib qolishi yoki mulkdor rozi bo'lmagan mulklarning yonidan yo'l o'tkazilish holatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu haqiqatda xususiy mulkning mazmunini belgilab beradi. Yurtimizda ham yer uchastkalarini jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo'yish masalalari bo'yicha qonunchilik ancha takomillashtirildi. Investitsiya bo'yicha ham qonunchilikda o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlash maqsadida normalar ishlab chiqildi. Ammo amaliyotimizda investorlarni cho'chituvchi qoidalar haligacha saqlanib turibdi. Bulardan biri mamlakatimizda xalqaro arbitrajlarining yo'qligi hisoblanadi. To'g'ri, Tashkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasi huzurida tashkil etilgan. Fikrimizcha, buning o'zi yetarli emas. Investorlarning davlat sudlariga nisbatan ishonchsizligi tufayli ko'pchilik investorlar nizo kelib chiqsa arbitrajda hal etishni afzal ko'rishadi. Davlat kafolatlarini olgan holda kirib keluvchi investorlar o'zlarining investitsiya shartnomasida bundan tashqari BIT larda ko'rsatilgan nizoni hal etuvchi subyektlarga murojaat qilishlari mumkin. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni kirituvchi investorlar esa, davlat kafolatlarini olishmaydi. Ular va davlat o'rtasida nizo kelib chiqqanda Xalqaro investitsiya arbitrajlariga murojaat qilishlari mumkin. Bundan tashqari Xalqaro Sug'urta agentligi (MIGA) da yoki boshqa sug'urta tashkilotlarida investitsiyalarni sug'urta qilish orqali ham investitsiyalarni himoya qilish mumkin.

## REFERENCES

1. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A.Muhitdinova va boshq.; mas'ul muharrir H.Toychiyev. – T.: Adolat, 2009. 704 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi - <https://lex.uz/docs/-111189#-154122>
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonuni - <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
4. [Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari](http://invest.gov.uz/ru/investor/russkij-dvustoronnie-dogovora/)
5. [FAIR AND EQUITABLE TREATMENT UNCTAD Series on Issues in International Investment Agreements II](https://unctad.org/en/Docs/unctaddiaeia2011d5_en.pdf)
6. Dolzer, R., and C. Schreuer. Principles of International Investment Law. 2d ed. Oxford: Oxford University Press, 2012.
7. <https://icsid.worldbank.org/rules-regulations/convention>
8. [https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/ICSID\\_Convention\\_EN.pdf](https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/ICSID_Convention_EN.pdf)